

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi  
100% aksiyalar paketiga egalik qiluvchi yagona aksiyadori  
“UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJning,  
aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kirdigan masalalar bo‘yicha  
50-2024/11-sonli qarori**

Toshkent sh.  
A.Temur ko‘chasi, 13-uy

2024-yil “26”-noyabr  
soat: 11:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) 2024-yil “26”-noyabr holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Jamiyatning 139 837 000 000 dona, ya’ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2024-yil “26”-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat Ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**1. Jamiyatning “Ijro organining mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida.**

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Boshqaruvchi direktori S.Gulyamov Jamiyat yagona aksiyadoriga mazkur masala Jamiyat Kuzatuv kengashining 2023-yil 13-noyabrdagi 73-sonli bayonnomasiga asosan ko‘rib chiqilib, dastlabki rozilik olinganini bildirib o‘tib, yakuniy tasdiqlashni taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (kumulyativ ovoz berish orqali 139 837 000 000 ovoz, 100%):**

1. Jamiyatning “Ijro organining mehnatiga haq to‘lash va rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Nizomi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zosi vakolatlarini muddatidan oldin tugatish va yangi Kuzatuv kengashi a’zosini saylash to‘g‘risida.**

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Boshqaruvchi direktori S.Gulyamov Jamiyat yagona aksiyadorining 2024-yil 23-sentabrdagi 23-sonli xati asosida Kuzatuv kengashi a’zosi Baxtiyor Muhitjonovich Mirzayev vakolatlarini muddatidan oldin tugatish va uning o‘rniga “O‘zavtosanoat” AJ G‘aznachilik va moliya boshqarmasi boshlig‘i Alimov Navruzjon Raimjanovichni Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zoligiga saylash masalasini taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (kumulyativ ovoz berish orqali 139 837 000 000 ovoz, 100%):**

2.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zosi Baxtiyor Muhitjonovich Mirzayev vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin;

2.2. “O‘zavtosanoat” AJ G‘aznachilik va moliya boshqarmasi boshlig‘i Navruzjon Raimjanovich Alimov Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zoligiga 3-yil muddatga saylansin.

**3. Jamiyatning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.**

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning Boshqaruvchi direktori S.Gulyamov Jamiyat yagona aksiyadoriga mazkur masala Jamiyat Kuzatuv kengashining 2024-yil 29-martdagagi 76-sonli bayonnomasiga asosan ko‘rib chiqilib, dastlabki rozilik olinganini bildirib o‘tib, yakuniy tasdiqlashni taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

**Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):**



3. Jamiyatning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

#### **4. Jamiyatda 2024-yil yakuni bo'yicha tashqi audit o'tkazish, tashqi auditorlik tashkilotlarini tanlash va ularga to'lanadigan haq miqdorini belgilash.**

Mazkur masala yuzasidan Jamiyat Boshqaruvchi direktori S.Gulyamov so'zga chiqib, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonuniga asosan Jamiyatda majburiy tashqi audit o'tkazish, tashqi auditor tashkilotlarini tasdiqlash masalasi Jamiyatning aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilishi belgilanganligini bildirdi. Shuningdek, "Davlat xaridlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etgan holda Jamiyatning 2024-yil moliya xo'jalik faoliyati natijalarini tekshirish uchun tashqi auditorlik tashkilotlarini tanlab olish yuzasidan 24120012378336- va 24120012378387-tonli lotlar tashkil etilgan bo'lib, tanlov natijalariga ko'ra 52,000,000.00 so'm taklif bilan "TTT-Audit" MChJ (milliy standartlar asosida) va 1 294 384 000.00 so'm taklif bilan "Deloitte va Touche" MChJ (xalqaro standartlar bo'yicha) g'olib bo'lib, belgilangan tartibda xarid komissiyasining tegishli bayonnomalari rasmiylashtirilganligini ma'lum qildi va Kuzatuv kengashining 2024-yil 24-sentabrdagi 79-tonli bayonnomasi bilan mazkur auditorlik tashkilotlarini tanlash bo'yicha oldindan rozilik olingenini bildirib, yakuniy tasdiqlashni taklif etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

##### **Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):**

###### **4.1. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:**

- UZEX TENDER maxsus axborot portalida moliyaviy hisobotning milliy buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqligi auditi xizmatini olish uchun 24120012378336-lot bo'yicha Jamiyat xarid komissiyasining onlayn-elektron bayonnomasiga asosan tanlovda "TTT-Audit" MChJ auditorlik tashkiloti g'olib deb topilganligi hamda uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori chegarasi QQS bilan 52 000 000,00 so'm miqdorida taklif qilinganligi;

- UZEX TENDER maxsus axborot portalida moliyaviy hisobotning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqligi auditi xizmatini olish uchun 24120012378387-lot bo'yicha Jamiyat xarid komissiyasining onlayn-elektron bayonnomasiga asosan tanlovda "Deloitte va Touche" MChJ auditorlik tashkiloti g'olib deb topilganligi hamda uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori chegarasi QQS bilan 1 294 384 000,00 so'm miqdorida taklif qilinganligi.

4.2. Jamiyatning 2024-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlariga muvofiqligini auditning xalqaro standartlari bo'yicha tashqi audit tekshiruvidan o'tkazilsin. Bunda:

- moliyaviy hisobotning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq audit o'tkazish uchun "Deloitte va Touche" MChJ auditorlik tashkiloti tasdiqlansin hamda uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori chegarasi QQS bilan 1 294 384 000,00 so'm miqdorida belgilansin;

- moliyaviy hisobotning milliy buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq audit o'tkazish uchun "TTT-Audit" MChJ auditorlik tashkiloti tasdiqlansin hamda uning xizmatiga to'lanadigan haqning eng yuqori chegarasi QQS bilan 52 000 000,00 so'm miqdorida belgilansin.

Ushbu qaror 2024-yil "26"-noyabr kuni imzolandi.


**"UzAuto Passenger Vehicles  
Management" MChJ nomidan  
Bosh direktor**



B.Axunov




Jamiyat yagona aksiyadorining  
50-2024/11-sonli qaroriga kelishish varaqasi

U.Qosimov	
N.Nabihev	
Sh.Ikramov	

Карор мөнхаси кирсетилди:

Бонсайаруви директор 8.6.8.



M. Mamatgaziev